



SOLIQ SALOHİYATINING IQTISODIY MAZMUNI VA SOLIQ TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

Jurayev Xusan

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-9805-9712

xusan.jurayev@tues.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq salohiyatining iqtisodiy mazmuni, uning shakllanish qonuniyatlari va soliq tizimidagi strategik o'rni yoritilgan. Tadqiqot davomida soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirishda ushbu ko'rsatkichning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, soliq bazasini kengaytirish va soliq yig'iluvchanligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash yo'llari ko'rib chiqilgan. Maqola soliq siyosatini takomillashtirish va soliq yukini optimallashtirish masalalari bilan qiziquvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: soliq salohiyati, soliq tizimi, iqtisodiy mazmun, soliq bazasi, budget daromadlari, soliq siyosati, fiskal samaradorlik, soliq yukini optimallashtirish, soliq tushumlari, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА И ЕГО РОЛЬ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ

Джураев Хусан

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическое содержание налогового потенциала, законы его формирования и его стратегическая роль в налоговой системе. В ходе исследования проанализированы факторы, влияющие на налоговый потенциал, и обоснована важность этого показателя для стабилизации доходов государственного бюджета. Также рассмотрены пути обеспечения экономического роста страны путем расширения налоговой базы и увеличения налоговых поступлений. Статья предназначена для специалистов, заинтересованных в совершенствовании налоговой политики и оптимизации налогового бремени.

Ключевые слова: налоговый потенциал, налоговая система, экономическое содержание, налоговая база, бюджетные доходы, налоговая политика, фискальная эффективность, оптимизация налогового бремени, налоговые поступления, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

THE ECONOMIC CONTENT OF TAX CAPACITY AND ITS ROLE IN THE TAX SYSTEM

Jurayev Khusan*Tashkent State University of Economics*

Abstract. *This article discusses the economic content of tax capacity, the laws of its formation and its strategic role in the tax system. During the study, the factors affecting tax capacity were analyzed and the importance of this indicator in stabilizing state budget revenues was substantiated. Also, ways to ensure the country's economic growth by expanding the tax base and increasing tax collection were considered. The article is intended for specialists interested in improving tax policy and optimizing the tax burden.*

Keywords: *tax capacity, tax system, economic content, tax base, budget revenues, tax policy, fiscal efficiency, optimization of the tax burden, tax revenues, optimization, tax incentives, tax rate.*

Kirish.

Soliq salohiyati tushunchasi shunchaki yig'ilgan soliqlar miqdori emas, balki iqtisodiyotning muayyan rivojlanish bosqichida soliq to'lovchilarga ortiqcha og'irlik tushirmagan holda safarbar etilishi mumkin bo'lgan maksimal moliyaviy resurslar ko'lamini ifodalaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari doirasida soliq yukini kamaytirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu jarayonda soliq salohiyatini to'g'ri baholash davlat byudjeti parametrlarini aniq rejalashtirish va hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bois, soliq salohiyatining iqtisodiy mazmunini chuqur o'rganish va uning soliq tizimidagi o'rnini belgilash ilmiy va amaliy jihatdan juda dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq salohiyati tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turli xil yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ushbu tushunchaning mazmunini ochib berishda jahon va mahalliy olimlarning qarashlarini uchta asosiy yo'nalishga ajratish mumkin.

Klassik va neoklassik yondashuvlar Ushbu yondashuv vakillari soliq salohiyatini mamlakatning umumiy iqtisodiy resurslari bilan bog'laydilar. Xususan, Musgreiv va Musgreivlar (1989) o'zlarining "Public Finance in Theory and Practice" asarlarida soliq salohiyatini (tax capacity) iqtisodiyotning soliq bazasini tashkil etuvchi real daromadlari sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha, soliq salohiyati — bu davlatning iqtisodiy o'sishga zarar yetkazmagan holda safarbar etishi mumkin bo'lgan maksimal resurslaridir.

Soliq stavkalari va salohiyat o'rtasidagi bog'liqlikni Laffer (2004) o'zining mashhur "Laffer egri chizig'i" nazariyasi orqali tushuntirib bergan. Uning ta'kidlashicha, soliq yukining haddan ziyod yuqori bo'lishi soliq to'lovchilarning faolligini pasaytiradi va natijada real soliq salohiyatining qisqarishiga olib keladi.

Fiskal va ma'muriy yondashuvlar MDH davlatlari olimlari, jumladan Panskov va Gorskiy, soliq salohiyatini ko'proq amaldagi soliq qonunchiligi bilan bog'laydilar. Gorskiyning (2003) fikricha, soliq salohiyati — bu muayyan hududda amaldagi soliq stavkalari sharoitida soliq bazasidan undirilishi mumkin bo'lgan soliq daromadlarining prognoz miqdoridir. Bu yondashuvda soliq ma'murchiligi va yig'iluvchanlik ko'rsatkichlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar soliq salohiyatini milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rganganlar:

Jo'rayev (2004) o'zining ilmiy ishlarida soliq salohiyatini hududiy rivojlanish omili sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, soliq salohiyati nafaqat amaldagi tushumlar, balki hali

soliqqa tortilmagan, lekin kelajakda daromad keltirishi mumkin bo'lgan manbalarni ham o'z ichiga oladi.

Voxidov (2015) o'zining doktorlik dissertatsiyasida soliq salohiyatini baholashda "yashirin iqtisodiyot" ulushini hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Uning qarashlariga ko'ra, soliq salohiyatining to'liq yuzaga chiqmasligiga soliqdan qochish va soliq imtiyozlarining samarasizligi sabab bo'ladi.

Toshmatov soliq salohiyatini oshirishning asosi sifatida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ko'rsatib o'tgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq salohiyati murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Agar klassiklar unga iqtisodiy imkoniyat sifatida qaragan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotchilar uni soliq ma'murchiligi va institutsional muhit bilan uzviy bog'liq deb hisoblamoqda.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq tizimida soliq salohiyati degan tushuncha qo'llaniladi. Tarixiylik jihatdan ilmiy yondoshilganda soliq salohiyati tushunchasi ilmiy adabiyotlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qo'llanilgan. Jumladan, ilmiy izlanishlarda davlat moliyasi va soliq siyosatini baholashga doir izlanishlar kuchaygan davrda shakllangan, asta-sekin moliyaviy sektorda amaliy jarayonga aylanib borishi bilan bir qatorda makro-mikro iqtisodiy fiskal tahlilning muhim kategoriyasi sifatida ilm-fanga kirib kela boshladi. Ushbu iqtisodiy kategoriyaning ilmiy-amaliy tushuncha sifatida iqtisodiyotga kirib kelishi bir necha bosqichlarda sodir bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Darhaqiqat bu tushunchaning 1950-1970-yillarda dunyo amaliyotida davlat byudjeti va soliq tushumlarini prognoz qilish muammosi yuzaga kelish bilan yuzaga keladi. Chunki, ikkinchi jahon urushidan keyin davlatlar iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish uchun soliq tushumlari hajmini aniq baholashga ehtiyoj seza boshlagan edi, bu davrlarda soliqlardan olinadigan "potensial tushumlar"ni o'lchashga doir nazariy yondashuvlar paydo bo'ldi.

Ma'lumki, 1970-yillarda mashhur iqtisodchi olim Laffer tomonidan taklif qilingan Laffer egri chizig'i soliq stavkalari bilan soliq tushumlari o'rtasidagi optimal munosabatga oid ilmiy-nazariy qarashlari va ilmiy xulosalari soliq potensialini baholashga bo'lgan ehtiyojning yuzaga kelishi omili bo'lib xizmat qildi. nazariy jihatdan asoslab berdi. Bu nazariya asosida milliy iqtisodiyotdan soliqlarni undirish miqdori (hajmi)ni aniqlashda undan qancha soliq yig'ish mumkin degan savollar o'rtaga chiqa boshladi, bu esa, soliq potensialini turli darajalarda o'lchash zarurligini taqozo qila boshladi.

Nihoyat jahon iqtisodiyotida ayniqsa, 1970-1990-yillarda "Tax Capacity" tushunchasining ilmiy-amaliy lug'atlarga kirishi bilan birgalikda iqtisodiy munosabatlarga aylana boshlandi. Bu davrlarda ayrim xorijiy iqtisodchilar, jumladan, Musgrave, Aaron, Shoup, Stiglitz va shu kabilarda tomonidan "tax capacity" va "tax effort" kategoriyalari ta'limotga kirita bordi. Shu jihatdan olgan "Tax capacity"bu soliq salohiyati "Tax effort" esa, soliq imkoniyatlaridan foydalanish darajasi kategoriya va iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi ilmiy so'zlar qo'llanila boshlandi, bu iqtisodchilar o'z ilmiy asarlarida davlat iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib maksimal yig'ilishi mumkin bo'lgan soliq miqdorini ilmiy o'lchashni nazariy asoslashga harakat qilganlar.

O'tgan asrning 80-yillaridan tortib 2000-yillarda hududiy moliyaviy munosabatlarda bu tushunchalardan foydalanish boshlandi, xususan, Yevropa, Amerika, Kanada va davlatlarida hududlar o'rtasida moliyaviy munosabatlarda o'zaro tenglashtirish siyosatini olib borishda ularda soliq salohiyatini aniqlashga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Bu davrda soliq salohiyatini aniqlashning bir qator ilmiy modellar, jumladan, "Representative Tax System Model (RTS)", "Fiscal Capacity Index (FCI)" va "Tax Base Approach" kabilarda aynan shu modellar orqali "soliq salohiyati" tushunchasi amaliyot va ilmiy tadqiqotlarda soliq salohiyatiga bo'lgan ehtiyojlar yuzaga kela boshlandi. Shunday qilib bugungi kunda bu tushuncha zamonaviy ilmiy mazmunga

ega bo'lishga ulgurdi, hozirgi vaqtda bugungi kunda davlat byudjeti prognozlari, soliq ma'murchiligi samaradorligi, soya iqtisodiyoti tadqiqotlari, hududlar moliyaviy salohiyati tahlili hamda soliq imtiyozlarining samarasi va shu kabi jarayonlarni ilmiy tahlil qilishda aynan soliq salohiyatini aniqlash, baholash va kelgusi davrga mo'ljallangan ko'rsatkichlarni aniqlash va shu kabi jarayonlarda asosiy ilmiy kategoriyaga aylandi.

Darhqiqat soliq salohati (tax capacity) davlat moliyasi nazariyasida muhim ahamiyat kasb etib, u har qaysi mamlakatning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda baholanishi mumkin bo'lgan ehtimoliy maksimal soliq resurslarini anglatadiki, bu kategoriya tarixiy jihatdan bir necha bosqichlarda rivojlanib, klassik moliya maktabidan tortib zamonaviy empirik modellargacha sezilarli evolyusiyani bosib o'tganligini yuqorida keltirib o'tdik. Askariyat hollarda soliq salohati tushunchasi asosan soliq yukini maksimal darajada ko'tarish qobiliyati nuqtai nazaridan talqin qilingan bo'lsa (asosan dastlabki hollarda) ayrim hollarda masalan Josiah Stampning ta'riflashicha, (1922) soliq salohiyatini iqtisodiyotga zarar yetkazmasdan davlat yig'ishi mumkin bo'lgan maksimal soliq miqdori sifatida ta'riflaydi va u buni iqtisodiy barqarorlik, aholining minimal turmush darajasi, sarf-harajatlarning o'zgaruvchanligi kabi omillar bilan baholaydi, darhaqiqat Josiah Stampning ilmiy yondoshuvidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu davrda soliq salohati ko'proq fiskal bosim nuqtai nazaridan o'lchangan. Ammo, boshqa bir olim va ilmiy yondoshuvga ko'ra, masalan, Findlay Shirras (1944)ga ko'ra, soliq salohiyatini milliy iqtisodiyotga qiyinchilik keltirmasdan to'lanishi mumkin bo'lgan soliqning chegarasidir, buni u minimal iste'mol hajmi, ishlab chiqarish potentsiali va aholi real daromadlari kabi omillar asosida shakllanadi deb hisoblaydi.

1950-1980-yillarda davlat moliyasi nazariyasining rivojlanib borishida boshqa kategoriyalar singari soliq salohiyati kategoriyasiga ham kengroq urg'u berila boshlandiki, ularning vakillaridan biri bo'lgan Musgrave soliq salohati tushunchasiga yangi ilmiy nuqtai nazar olib kirdi va uni qtisodiy resurslar, davlatning fiskal imkoniyatlari, soliq tizimining samaradorligining o'zaro bog'liqligi sifatida baholadi. Soliq salohiyatini ilmiy ifodalashda Musgrave katta hissassi shundan iboratki, uni fiskal funksiyalar bilan bog'lagan holda u (fiskal bosim) bilan belgilanadigan, jamiyat to'lay oladigan soliq yukining barqaror chegarasi sifatida moliyaning taqsimlash, barqarorlashtirish va resurslarni taqsimlash funksiyalarining ichki mohiyatidan izlash lozim degan ilmiy g'oyani ilgari suradi. Shu jihatdan olganda va talqin qilganda Musgravening ilmiy yondoshuvida soliq salohiyatini faqat iqtisodiy imkoniyat emas, balki davlatning institutsional qobiliyati sifatida ham ifodalanganligini ko'rish mumkin.

Bulardan keyingi davrlarda soliq salohiyatini empirik jihatdan baholashga ustuvorlik berilganligini ko'rish mumkin, bu davr asosan 1980-2000 yillarga to'g'ri keladiki, bu davrlarda XX asr oxirida soliq salohiyatini iqtisodiy modellar orqali baholashga yondashuvlar shakllana boshlandi, bunda baholash va aniqlash mezonlarida soliqlarning yalpi ichki mahsulot bilan bog'liq holda baholash, uni aniqlashda korrelatsion modellar hamda institutsional ko'rsatkichlar orqali baholab borishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bu davrdagi boshqa bir ilmiy yondoshuvlarga ko'ra, jumladan davlat moliyasi va soliq nazariyasining yirik vakillaridan bo'lgan Bird, Gordon va Tanzi soliq salohiyatini aniqlashda YaIM o'sishi, yashirin iqtisodiyot ulushi, soliq ma'murchiligi samaradorligi, mamlakatning tashqi savdo hajmi hamda davlat boshqaruvi sifatini aks ettiruvchi indekslar (masalan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligi va shu kabilar)ning holati bilan bog'liq holda aniqlash lozim degan ilmiy g'oyani ilgari suradi, shundan kelib chiqqan holda, ushbu ilmiy yondoshuvga ko'ra, soliq salohiyatining darajasi, hajmi va miqdoriy massasi milliy iqtisodiyotning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq bo'ladi degan ilmiy mazmun kelib chiqadi.

Ta'kidlash lozimki, soliq salohiyatini baholashda va uning mohiyatini anglashda ilmiy maktablardan tashqari jahonning yirik moliyaviy-ilmiy institutlari bo'lgan muassasalar tomonidan ham ilmiy-amaliyo yondoshuvlar rivojlanib bordi. Buni biz odatda zamonaviy yondoshuvlar ham deb ataymizki, bunda ilmiy-amaliy yondoshuvning markazida institutsional va makroiqtisodiy kategoriyalar yotadi. Bular jumlasiga Jahon banki (World Bank) va Xalqaro

Valyuta Jamg'armasi (IMF)ning yondoshuvini keltirish mumkinki, bunda soliq salohiyatini soliq tushumlarini hisoblash orqali baholashga ustuvorlik qaratadi, bu asosan 2000-yildan buyog'idagi ilmiy yondoshuvlarni ifoda etadi.

Soliq salohiyatiga yondoshuvning Jahon banki va XVJ modellariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda asosiy mezonlar sifatida soliq ma'murchiligi samaradorligi, YaIM (nominal va real) hajmi, resurslarning darajasi, savdo ochiqligi indeksi, davlat boshqaruvi indeksi (WGI) va aholi soni kabi muhim ko'rsatkichlar va boshqa shu kabi mezonlarni e'tiborga olish tavsiya etiladi. Jahon banki va XVJ modellarida har bir mamlakat uchun soliq salohiyati va haqiqiy soliq tushumlari o'rtasidagi farqlarga baho berish, undan kelib chiqqan holda "Tax Gap (soliq farqi)"ni aniqlashga asosida yondoshish yotadi. Ma'lumki, "Tax Gap (soliq farqi)" mohiyatiga ko'ra, bu amalda to'planishi kerak bo'lgan soliq tushumlari bilan haqiqatan to'plangan soliq tushumlari o'rtasidagi farqni anglatuvchi soliq ko'rsatkichi bo'lib, mazmunan soliq salohiyatining baholanishining ob'ektivligini ham ifodalaydi, ya'ni bu yerda davlat soliq qonunchiligiga muvofiq aniqlangan soliqlar qancha bo'lishi kerak — "potential tax" "liability", lekin tadbirkorlar yoki aholi tomonidan to'lanmagan, yashirilgan yoki kechiktirilgan soliqlar tufayli tushmagan qismi "tax gap" qancha bo'ldi degan farqlarni hisoblab borishni taqozo etadi.

Albatta, soliq salohiyati haqida gap ketganda "tax gap" ko'rsatkichi bilan bog'liq holda o'rganish va soliq salohiyatining mohiyatini ochib berish ilmiy jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Shu jihatdan olganda "tax gap" odatda uch asosiy qismdan tashkil topadi. Bu birinchisi "Compliance Gap" bo'lib, u mazmunan soliq majburiyatlarni bajarmaslikning farqi sifatida izohlanib, odatda soliq to'lovchi daromadni yashirishi, xarajatlarni asossiz oshirishi va yashirin iqtisodiyot shaklida mavjud bo'ladi. Bundan farqli ravishda "Filing Gap" esa, soliq to'lovchilardan soliq deklaratsiyalarni taqdim etmaslik holatini bildiradi va ifodalaydiki, u soliq hisobotini kech taqdim qilish va uni umuman taqdim etmaslik holatda yuz beradi. "Payment Gap" esa, soliq to'lovni kechiktirish yoki to'lamaslikni ifoda etib, soliq qarzdorligi ortib borishi va rejali soliq to'lovlarni bajarmaslikni ifodalaydi. Darhaqiqat soliq salohiyatini baholashda "tax gap"ning muhimligi shundaki, u birinchidan, davlat byudjeti uchun yirik yo'qotishlarni ko'rsatib beradiki, byudjetdagi yo'qotishlar ya'ni, soliq tushumlarining kamayishi aslida soliq salohiyatining darajasi past bo'lganligidan dalolat beradi, ikkinchidan esa, soliq ma'murchiligi samaradorligini baholashga yordam beradi, bu samaradorlik soliqlarning yig'iluvchanligiga ta'sir qiladiki, yig'iluvchanlikning oshishi qaysidir soliq turi yoki tarmoq va alohida soliq to'lovchilarning soliq salohiyati oshganligini ifodalaydi, uchinchidan esa, yashirin iqtisodiyot ulushini anglatadi, bu degani yashirin iqtisodiyot qanchalik yuqori bo'lsa, soliq tushumlari kam bo'ladi, soliq tushumlarining kamayishi proporsional tartibda soliq salohiyatining kamayishiga olib keladi.

Albatta soliq salohiyati va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi funksional bog'liqlik mavjuddir, chunki, yashirin iqtisodiyot soliq salohiyatining hajmiga ta'sir qiladi. Ya'ni, u soliq bazasini qisqartirib, uning hisobga olinmagan daromadlar tufayli soliq tushumlari kamayishiga olib keladi, boshqa tomondan esa, soliq yo'qotishlarini oshiradi, ya'ni, soliq sohasidagi ortiqcha imtiyozlar, hisob-kitoblarni yashirish, naqd pul muomilasining noto'g'riligi provardida soliq salohiyatining kamayishiga olib keladi, shuningdek, yashirin iqtisodiyot soliq stavkalarining sun'iy oshishiga olib keladiki, oqibatda davlat byudjetini to'ldirish uchun soliqlarning yukini oshirishga to'g'ri keladi, o'z navbatida, bu esa yana soya iqtisodiyotiga rag'bat beradi.

Yashirin iqtisodiyot mohiyatiga ko'ra, investorlar uchun xatarni oshiradiki, yashirin iqtisodiyot yuqori bo'lgan davlatlarda institutsional ishonch past bo'ladi, bu esa, soliq salohiyati va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ifodalaydi, sababi yashirin iqtisodiyot oshgan sari soliq salohiyati pasayib boradi. Buni matematik ifoda bilan tavsiflaganda:

$$\text{Real soliq salohiyati} = \text{umumiy soliq salohiyati} - \text{yashirin iqtisodiyot sababli soliq yo'qotishlari (1)}.$$

Bundan ko'rinadiki, soliq salohiyatining yuksalishi soya iqtisodiyotini kamaytiradi, agar soliq ma'murchiligining samaradorligi oshib uning ko'lami ijobiy jihatdan yaxshilansa hamda soliq yuki adolatli taqsimlansa, uning natijasida iqtisodiyotda shaffoflik ortib, davlat moliyasi barqarorlashishga imkoniyat tug'iladi, iqtisodiyotda rasmiy faoliyatga o'tish rag'batlari ortadi hamda milliy xo'jalikda noqonuniy naqd pul aylanmasi qisqaradi, natijada umumiy va real soliq salohiyati oshadi. Bu borda ayrim iqtisodchi olimlarning fikrlariga e'tibor beriladigan bo'lsa, soliq salohiyati va yashirin iqtisodiyotning o'zaro ta'siriga doir xalqaro tadqiqotlarda yashirin iqtisodiyot ko'lami soliq stavkalari va ma'muriy byurokratiya darajasi bilan bevosita bog'liqdir degan g'oyalar uchraydi (masalan, ingliz iqtisodchisi F.Shnayder (Schneider)), soliq intizomi past bo'lgan mamlakatlarda soya iqtisodiyoti 40% gacha yetishi natijasida soliq salohiyati parallel kamayadi mazmunidagi g'oyalarda (masalan Tanzi (Tanzi)) yashirin iqtisodiyot soliq salohiyati bilan to'g'ri bog'liqlikni ifodalanadi, korrupsiya va ma'muriy to'siqlar yashirin iqtisodiyotning asosiy omillari bo'lib, natijada ular to'g'ridan-to'g'ri soliq salohiyatini kamayishining asosiy sababi sifatida iqtisodiyotda chalkashliklarni keltirib chiqarilishi AQShlik olimlar M.Olken va R.Pananderlar tavsiflaydi.

Bu kabi nazariyalarning qanchalik ahamiyatli ekanligini isbotlash maqsadida dunyo mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot va soliq salohiyatining o'zaro bog'liqligini xarakterlaydigan ayrim ko'rsatkichlar keltirish mumkin. Unga ko'ra, Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik davlatlarida yashirin iqtisodiyot 8–15%ni tashkil etgan holda umumiy holatda soliq salohiyati yuqori hisoblanadi, rivojlanayotgan davlatlarda esa, yashirin iqtisodiyot 30–60%dan iborat bo'lib, bunda soliq salohiyati past hisoblanadi, o'z navbatida Markaziy Osiyo davlatlarida noqonuniy naqd pul aylanmasi va ro'yxatdan o'tmagan biznes ta'siri kuchliligi tufayli soliq salohiyati real holatni ko'rsatishi mushkuldir, ya'ni, yashirin iqtisodiyotni aniqlashning o'zi yetarlicha ob'ektiv emasdir.

1-jadval

Soliq salohiyatining iqtisodiyotda yuzaga kelishining evolyusion rivojlanishi

№	Davrlar	Ilmiy yondoshuv	Muhim belgilari
1	1920–1940	Klassik fiskal bosim	Soliq yuki chegarasi, ijtimoiy minimal iste'mol
2	1950–1980	Davlat moliyasi maktabi	Institutsional qobiliyat, fiskal funksiyalar
3	1980–2000	Makroiqtisodiy modellar	Soliq salohiyati, yashirin iqtisodiyot
4	2000–2024	Empirik-iqtisodiy modellar	“Tax Capacity”, “Tax Effort”, “Tax Gap”

Manba: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi keltirilgan 1-javdal ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, soliq salohiyati avval fiskal yuk chegarasi sifatida talqin qilinganligi anglash mumkin, uning evolyusion rivojlanishi keyinchalik institutsional va makroiqtisodiy kategoriyaga aylangan. Keyinchalik soliq salohiyati bu nafaqat zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy imkoniyat emas, davlat boshqaruvi sifati darajasida baholash mumkin. Shu jihatdan olganda soliq salohiyati iqtisodiy siyosatni rejalashtirishda asosiy fiskal indikatorga aylanga va soliq salohiyati va soliq samaradorligi (tax effort) o'rtasidagi farq davlatning soliq ma'murchiligi sifatini ko'rsatadigan iqtisodiy indikator sifatida ham namoyon bo'ladi.

Bundan ko'rinadiki, soliq salohiyatining rivojlanish evolyusiyasi davlat soliq tizimidagi konseptual o'zgarishlarni o'zida ifoda etadi, dastlab bu tushuncha soliq yukining maksimal darajasini anglatgan bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiy imkoniyatlarni, jamiyat iqtisodiy hayotining institutsional sifatini, davlat moliyasida fiskal samaradorlikni va soliq tizimida soliq ma'murchilik kabi keng qamrovli ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Umumiy tarzda hozirgi dunyo global iqtisodiyotida fiskal barqarorlik va davlat byudjeti daromadlarining izchil o'sayotganligi davlatning soliq salohiyatiga bevosita bog'liq hisoblanadiki, bu esa, mamlakatning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning maksimal darajada to'play oladigan soliq resurslari hajmini anglatadi. Chunki,

soliq yukining chegarasini aniqlashdan tortib, makroiqtisodiy modellar orqali hisoblanadigan “tax capacity”, “tax effort” kabi indikatorlar paydo bo’ldiki, bu bir qator strategik ahamiyatga ega bo’lgan maqsadlarga: davlatning fiskal barqarorligini ta’minlashga, yashirin iqtisodiyot ulushini aniqlashga, soliq ma’urchiligini samaradorligini baholashga, davlat byudjetini to’g’ri rejalashtirishga hamda soliq siyosatini to’g’ri boshqarishga qaratilgan bo’ladi.

2-jadval

Soliq salohiyatiga oid olimlarning ilmiy ta’riflari

№	Olimlarning ismi-sharifi	Olimlarning ilmiy ta’rifi	Manbasi
1	Balaskiy (Rossiya)	Soliq salohiyati — mintaqalar va tarmoqlar kesimidagi soliq resurslarini baholovchi kompleks kategoriya.	Balaskiy (2002) <i>Nalogovyy potentsial regionov</i> .
2	Atamanchuk (Rossiya)	Soliq salohiyati — soliqlar yig’iluvchanligini ta’minlovchi iqtisodiy, ma’muriy va huquqiy omillar yig’indisi.	Atamanchuk (2009) <i>Fiskal’nyy potentsial regionov Rossii</i> .
3	Masgreyv	Soliq salohiyati — davlat iqtisodiy resurslaridan kelib chiqqan holda yig’ilishi mumkin bo’lgan maksimal soliq daromadlari, soliq tizimining funksional imkoniyatlari bilan belgilanadi.	Musgravelar (1989) <i>Public Finance in Theory and Practice</i> . McGraw-Hill.
4	Tanzi	Soliq salohiyati — davlatning institutsional va ma’muriy imkoniyatlariga asoslangan holda iqtisodiyotdan yig’ishi mumkin bo’lgan soliqlar majmuasi.	Tanzi (1995) <i>Taxation in an Integrating World</i> . Brookings Institution.
5	Shnayder	Soliq salohiyati soliq yuki, soliq ma’urchiligi va yashirin iqtisodiyot ko’lamiga bog’liq holda davlatning soliq yig’ish imkoniyatidir.	Schneider (2015) <i>The Shadow Economy and Tax Evasion: What Do We (Not) Know?</i> Journal of Economic Literature.
6	Tibou	Soliq salohiyati — soliq bazasining real va potensial hajmini baholash orqali byudjet imkoniyatlarini aniqlovchi kategoriya.	Tiebout (1956) <i>A Pure Theory of Local Expenditures</i> . Journal of Political Economy.
7	Laffer	Soliq salohiyati soliq stavkalari va soliq tushumlari o’rtasidagi bog’liqlikka asosan, maksimal soliq yig’ish nuqtasiga ega bo’lgan potensial imkoniyatdir.	Laffer (2004) <i>The Laffer Curve: Past, Present, and Future</i> . The Heritage Foundation.
8	Stiglis	Soliq salohiyati — iqtisodiyotning tarkibi, yolpi mahsulot va daromadlar o’sishiga asosan davlat yig’ishi mumkin bo’lgan soliqlarning ob’ektiv hajmi.	Stiglitz (2010) <i>Economics of the Public Sector</i> . W.W. Norton.
9	Lerner	Soliq salohiyati — soliq tushumlarining maksimal darajasi, iqtisodiy kon’yunktura va soliq bazasi dinamikasiga bog’liq.	Lerner (2007) <i>Fiscal Capacity and Economic Growth</i> . Fiscal Studies, 2007.
10	Samuelson	Soliq salohiyati — davlatning moliyaviy imkoniyatlarini belgilab beruvchi, iqtisodiy faollik va daromadlardan kelib chiqadigan soliq resurslari hajmi.	Samuelson (1983) <i>Foundations of Economic Analysis</i> . Harvard University Press.

Manba: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Zamonaviy sharoitlarda dunyo miqyosida soliq salohiyatiga yanada ko’proq urg’u berilishida BMT tomonidan qabul qilingan (*Third International Conference on Financing for Development* (Ustuvor Rivojlanishni Moliyalashtirish Bo’yicha III Xalqaro Konferensiya) hujjatda ichki daromadni mobilizatsiya qilish ya’ni, soliq tushumlari orqali mamlakatlar

moliyaviy resurslarini oshirish uchun barcha davlatlarning ma'sulligi belgilangan bo'lib, bunda soliq salohiyatiga ahamiyat berish tavsiya etiladi. Shunga asoslangan holda BMTning ushbu hujjati va boshqa lokal hujjatlariga ko'ra, soliq salohiyatiga (tax capacity) davlatning soliq tizimi orqali moliyaviy resurslarni samarali yigib, ushbu resurslar bilan ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarni bajarish imkoniyatini ifoda etuvchi tushuncha sifatida ta'rif beradi.

Rossiyada soliq salohiyati tushunchasi ko'pincha "Hududiy soliq salohiyati" (Nalogoviy potentsial regiona) kontekstida ko'riladi. Rossiya Moliya vazirligi hududlarga federal byudjetdan dotatsiya va transfertlar ajratishda soliq salohiyati ko'rsatkichidan foydalanadi. Maqsad: Boy hududlar (masalan, Moskva, Tatariston, Tyumen) va subsidiyaga muhtoj hududlar o'rtasidagi farqni kamaytirish. Baholash usuli: Hududning real yig'gan soliqlari emas, balki uning iqtisodiy resurslaridan kelib chiqib yig'ishi mumkin bo'lgan soliqlar hajmi hisobga olinadi.

Soliq salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvi.

Rossiya iqtisodiyotida soliq salohiyatini hisoblashda asosan "Reprezentativ soliq tizimi" (RST) uslubidan foydalaniladi. Bu usulda har bir hudud uchun o'rtacha soliq stavkalari va soliq bazasi tahlil qilinadi. Rossiya Federatsiyasi Byudjet kodeksiga muvofiq, soliq salohiyati — bu hududning soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni va vaqtinchalik omillarni hisobga olgan holdagi maksimal daromad keltirish qobiliyatidir.

Raqamlashtirish va "Soliq bo'shlig'i" (Tax Gap) tahlili. Rossiya Federal Soliq Xizmati (FNS) soliq salohiyatini aniqlashda dunyodagi eng ilg'or raqamli tizimlardan birini qo'llaydi:

ASK NDS-2 tizimi: Ushbu sun'iy intellektga asoslangan tizim qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS/NDS) to'lashdagi barcha zanjirlarni kuzatib boradi. Bu tizim orqali davlat "yashirin" soliq salohiyatini aniqlaydi, ya'ni qog'ozda ko'rsatilmagan, lekin real iqtisodiyotda mavjud bo'lgan aylandirilgan soliqqa tortish choralarini ko'radi.

Soliq salohiyatining tarkibiy qismlari (Rossiya misolida).

Rossiyada soliq salohiyatini belgilovchi asosiy manbalar quyidagilar:

Tabiiy resurslar rentasi: Neft va gaz qazib olish solig'i (NDPI) Rossiya soliq salohiyatining asosiy qismini tashkil etadi. Korporativ sektor: Foyda solig'i va QQS. Jismoniy shaxslar daromadi: NDFL (daromad solig'i) hududiy byudjetlarning barqarorligini ta'minlovchi asosiy element hisoblanadi.

Muammoli jihatlar:

Rossiya tajribasida ham soliq salohiyatini to'liq ishga solishga to'sqinlik qiluvchi omillar mavjud:

Iqtisodiyotning ofshorlashganligi: Yirik kompaniyalarning foydani chet elga olib chiqishi.

Yashirin iqtisodiyot: Ayrim hududlarda norasmiy bandlik darajasining yuqoriligi.

Soliq imtiyozlari: Federal darajada berilgan imtiyozlar ba'zan hududiy byudjetlarning soliq salohiyatini sun'iy ravishda pasaytiradi.

Qozog'iston Respublikasida soliq salohiyatini shakllantirish va boshqarish tizimi Rossiya modeliga o'xshash bo'lsa-da, o'zining resurslarga yo'naltirilganligi va investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Qozog'iston tajribasining asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

Milliy jamg'arma va soliq salohiyati.

Qozog'iston soliq tizimining o'ziga xosligi shundaki, uning soliq salohiyati ikki qismga bo'linadi:

Joriy byudjet ehtiyojlari: No-xomashyo sektoridan tushadigan soliqlar.

Milliy jamg'arma (Natsionalniy fond): Neft-gaz sektoridan tushadigan asosiy soliqlar (NDPI, eksport boji) to'g'ridan-to'g'ri strategik zaxiraga yo'naltiriladi. Bu tizim mamlakatning soliq salohiyatini "neft qarg'ishi"dan (holland kasalligi) himoya qilishga xizmat qiladi.

Hududlararo moliyaviy tenglashtirish.

Qozog'istonda hududlar (oblastlar) soliq salohiyati bo'yicha ikki guruhga bo'linadi:

Donor hududlar: Olmati va Ostona shaharlari, Atirau va Mang'istau viloyatlari. Ular o'z soliq salohiyatidan ortgan qismini respublika byudjetiga beradi.

Subventsiya oluvchi hududlar: Soliq salohiyati past bo'lgan viloyatlar markazdan yordam oladi. Qozog'istonda 2020-yildan boshlab korporativ daromad solig'ini (KPN) mahalliy byudjetlarga qoldirish tajribasi joriy etildi. Bu hududiy hokimiyatlarni o'z soliq salohiyatini (tadbirkorlikni rivojlantirish orqali) oshirishga rag'batlantiradi.

"Soliq hamyoni" va raqamli innovatsiyalar.

Qozog'iston soliq ma'murchiligida raqamli texnologiyalar soliq salohiyatini oshirishning asosiy drayveri hisoblanadi:

E-Invoys (ESF): Elektron hisob-faktura tizimi orqali tovarlarning harakati to'liq nazorat qilinadi, bu esa "yashirin" soliq salohiyatini aniqlash imkonini beradi. Soliq hamyoni (Nalogoviy koshelyok): Soliq to'lovchilar uchun barcha soliqlarni bitta hisob orqali to'lash va ortiqcha to'lovlarni avtomatik hisobga olish tizimi.

Investitsion jozibadorlik va soliq imtiyozlari.

Qozog'iston "Ostona" xalqaro moliya markazi (AIFC) va maxsus iqtisodiy zonalar orqali soliq salohiyatini sun'iy ravishda "cheklash" strategiyasidan foydalanadi (past stavkalar va imtiyozlar orqali). Maqsad — uzoq muddatli istiqbolda xorijiy investitsiyalar hisobiga umumiy soliq bazasini kengaytirish.

Soliq salohiyatining tarkibi (Qozog'iston misolida). Qozog'istonda soliq salohiyatining katta qismi quyidagi manbalarga to'g'ri keladi:

Xomashyo sektori: Foydali qazilmalarni qazib olish solig'i. QQS: Iste'mol darajasi yuqoriligi sababli byudjetning barqaror manbai. Ijtimoiy soliq: Bandlik darajasining yuqoriligi bilan bog'liq.

Janubiy Koreya Respublikasi soliq salohiyatini boshqarish va undan foydalanish bo'yicha dunyodagi eng ilg'or va intizomli modellardan biri hisoblanadi. Ushbu davlat tajribasi "shaffoflik", "yuqori texnologiyalar" va "rag'batlantirish" tamoyillariga asoslangan.

Soliq ma'murchiligini to'liq avtomatlashtirish (NTIS tizimi). Janubiy Koreya soliq salohiyatini aniqlashda NTIS (Neo Tax Integrated System) deb nomlanuvchi ulkan raqamli platformadan foydalanadi. Mazmuni: Ushbu tizim barcha bank operatsiyalari, kredit kartalari va elektron hisob-fakturalarni soliq idoralari bilan bog'laydi. Natija: "Yashirin iqtisodiyot" va naqd pul aylanmasi minimal darajaga tushirilgan. Bu davlatga o'z soliq salohiyatini deyarli 100% aniqlikda ko'rish imkonini beradi.

"Cash Receipt" (Naqd pul cheki) tizimi orqali soliq bazasini kengaytirish.

Koreya hukumati aholini soliq yig'ish jarayoniga jalb qilish orqali soliq salohiyatini oshirgan.

Mexanizm: Iste'molchi do'kondan biror narsa sotib olib, naqd pul to'laganda, o'z telefon raqamini kiritadi va maxsus "naqd pul cheki" oladi.

Rag'bat: Yil yakunida ushbu cheklar yig'indisi asosida fuqarolarga o'zlarining daromad solig'idan ma'lum qismi qaytarib beriladi (tax refund).

Iqtisodiy mazmuni: Bu tizim tadbirkorlarni tushumlarni yashirmaslikka majbur qiladi, natijada davlatning soliq salohiyati ortadi.

Kichik va o'rta biznesni (KOB) rag'batlantirish orqali salohiyatni oshirish

Janubiy Koreyada soliq tizimi "sog'ish" emas, balki "o'stirish" tamoyiliga asoslangan. Yangi tashkil etilgan texnologik korxonalar (startaplar) dastlabki yillarda soliqdan to'liq yoki qisman ozod qilinadi. Bu korxonalar oyoqqa turgach, ular yaratgan ish o'rinlari va daromadlar orqali davlatning uzoq muddatli soliq salohiyati bir necha barobar oshadi.

Soliq tizimida tutgan o'rni:

Koreya soliq salohiyati asosan uchta ustunga tayanadi:

Daromad solig'i (Individual Income Tax): Aholi daromadlarining shaffofligi hisobiga yuqori ulushga ega.

Korporativ soliq: Dunyoga mashhur "Chebol"lar (Samsung, Hyundai, LG) byudjetning asosiy donorlaridir.

QQS (VAT): Iste'mol madaniyati yuqoriligi sababli barqaror manba.

Soliq madaniyati va ta'lim. Koreyada soliq to'lash "vatanparvarlikning eng oliy ko'rinishi" sifatida targ'ib qilinadi. Maktab darsliklarida soliqlar qanday qilib yo'l, maktab va xavfsizlikka aylanishi bolaligidan o'rgatiladi. Bu esa ixtiyoriy soliq to'lash darajasini oshiradi va ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotlar natijasida soliq salohiyatining iqtisodiy mazmuni va uning mamlakat moliyaviy barqarorligidagi o'rni bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

Soliq salohiyati — dinamik kategoriya. U faqatgina bugungi kunda yig'ilayotgan soliqlar miqdori emas, balki iqtisodiyotning mavjud resurslari (tabiiy, moliyaviy, insoniy) asosida shakllanishi mumkin bo'lgan maksimal fiskal imkoniyatdir. Soliq salohiyati davlat byudjetini rejalashtirishda "o'lchov birligi" bo'lib xizmat qiladi. Uning noto'g'ri baholanishi soliq yukining asossiz ortishiga yoki byudjet taqchilligiga olib keladi. Xitoy va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq salohiyatini oshirish uchun faqatgina jazo choralari emas, balki raqamli shaffoflik va aholi bilan ochiq muloqot (rag'batlantirish tizimi) eng samarali usuldir. O'zbekiston sharoitida soliq salohiyatining to'liq yuzaga chiqishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omil bu iqtisodiyotning norasmiy sektori va ayrim tarmoqlardagi samarasiz soliq imtiyozlaridir.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq salohiyatidan samarali foydalanish va uni kengaytirish maqsadida quyidagi choralar taklif etiladi:

1. Soliq ma'murchiligini "Koreya modeli" asosida raqamlashtirish. Iste'molchilarni soliq nazoratiga jalb qilish uchun Janubiy Koreyadagi kabi naqd pul cheklari (Cash Receipt) uchun keshbek miqdorini tabaqalashtirish va tizimni yanada soddalashtirish. Bu "yashirin" aylanmalarni avtomatik ravishda soliq bazasiga qo'shadi.

2. Fiskal desentralizatsiyani kuchaytirish (Xitoy va Qozog'iston tajribasi). Hududiy hokimiyatlarning o'z soliq salohiyatini oshirishdan manfaatdorligini oshirish. Buning uchun tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan korporativ soliqlarning ma'lum bir qismini (masalan, 30-50%) to'g'ridan-to'g'ri mahalliy byudjetda qoldirish mexanizmini kengaytirish.

3. Soliq madaniyatini yoshlikdan shakllantirish. Janubiy Koreya tajribasini qo'llab, umumta'lim maktablari o'quv dasturlariga "Soliq savodxonligi" darslarini kiritish. Soliq to'lash — bu davlat xizmatlarini (ta'lim, tibbiyot, xavfsizlik) sotib olish ekanligini aholi ongiga singdirish.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Gorskiy, I.V. (2003) *'Nalogoviy potentsial v mexanizme mejbyudjetnix otnosheniy', Voprosi ekonomiki*, (6).

Jo'rayev, A.S. (2004) *Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq.*

Laffer, A.B. (2004) *The Laffer Curve: Past, Present, and Future. Heritage Foundation.*

Musgrave, R.A. and Musgrave, P.B. (1989) *Public Finance in Theory and Practice. New York: McGraw-Hill.*

Voxidov, O.V. (2015) *Soliq salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish. Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi. T.: BMA.*

Солиқ кодекси (2020) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси (2020) Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи, 640 б.